

Bo'riyeva Mahbuba,
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti
ilmiy xodimi



MIGRANT VA MIGRANT BO'LMAGAN OILALARDA NIKOHDAN QONIQQANLIK DARAJASINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada migrant va migrant bo'lmagan oilalarda nikohdan tashqari qoniqqanlik darajasi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari tahlil etilgan. Shuningdek, ushbu mavzu bo'yicha xorij va mamlakatimiz olimlarining fikrlari ham keltirib o'tilgan va tahlilga tortilgan.*

Аннотация. *В данной статье проанализированы результаты исследования уровня внебрачной удовлетворенности в семьях мигрантов и немигрантов. Также приведены и проанализированы мнения зарубежных и отечественных ученых по данной теме.*

Annotation. *This article analyzes the results of a study on the level of extramarital satisfaction in migrant and non-migrant families. The opinions of foreign and domestic scientists on this topic were also cited and analyzed.*

Tayanch so'zlar: *migrant, migrant bo'lmagan oila, nikoh, nikohdan qoniqqanlik, reprezentativlik.*

Ключевые слова: *мигрант, немигрантская семья, брак, удовлетворенность браком, репрезентативность.*

Key words: *migrant, non-migrant family, marriage, satisfaction with marriage, representativeness.*

Er-xotin munosabatlaridagi eng muhim omillardan biri bu ularning nikohidan qoniqqanlik darajasi hisoblanadi. Nikohdan qoniqqanlikni tahlil qilar ekanmiz, eng avvalo, ularning hayotdan qoniqqanliklarini tushunib olishimiz lozim.

Kirish. Oilalarda nikohdan qoniqish va nikohning mustahkamligi er-xotinlar turli hayotiy vaziyatlarda o'zlarini qanday tutishlariga ham bog'liqdir. Ko'p hollarda er-xotinlarning nikohdan qoniqqanliklari hamda ularni dam olish, hordiq chiqarishlarini qanday o'tkazish borasida fikrlari o'rtasida yaqin bog'liqlik mavjud bo'lib, bu munosabatlaridan qoniqish esa o'z munosabatlaridan qoniqmagan er-xotinlarga nisbatan ko'proq vaqt dam olish onlarida birga bo'lishlari tavsiya qilinadi. Er-xotinlar o'rtasida ularning har ikkalasi uchun ham umumiy do'stlarning mavjudligi ichki oilaviy munosabatning yaqinligini bildiruvchi muhim ko'rsatkichlardan biri sanaladi. O'zaro munosabatlari ijobiy shakllanmagan yoki nikohdan qoniqish ko'rsatkichi quyi rivojlangan er-xotinlar ko'pincha har birining alohida o'z yaqin tanishlari davrasiga ega bo'ladi. Shu o'rinda, shuni aytish joizki, er-xotinlarning dam olish vaqtlarini birga o'tkazishlari bo'yicha xarakteri va uning nikoh mustahkamligiga ta'siri turli oilalarda turlicha bo'ladi.

Asosiy qism. Er-xotin munosabatlaridagi eng muhim omillardan biri bu ularning nikohidan qoniqqanlik darajasi hisoblanadi. Nikohdan qoniqqanlikni tahlil qilar ekanmiz, eng avvalo, ularning hayotdan qoniqqanliklarini tushunib olishimiz lozim. M.Argaylning fikricha, juftliklarning qoniqqanligi ularning ma'lum darajada ishlarning o'tmishdagi va hozirgi holatini baholashlariga bog'liq bo'ladi¹. Qoniqish manbasi esa maqsadga olib keluvchi qoniqish holatidan iborat bo'ladi. O'z-o'zidan kelib chiqadiki, bunday maqsad shaxs ehtiyojlarini qondirish hisoblanadi. Er-xotinlar o'rtasida o'zaro munosabatlarni bog'lash, birlashtirishga bo'lgan ehtiyojni qondirishning eng asosiy yo'li bu – nikohdir. Shu o'rinda M.Argayl: "Turmush qurgan insonlarning o'z nikohlaridan qoniqishi, ularning o'z hayotlaridan qoniqishiga sabab bo'ladi", – deb ta'kidlaydi².

D.Mayers ham bu xususida o'z fikrlarini quyidagicha bayon qiladi: "Kimgadir bog'liqligini his qiladigan odamlarning ko'pchiligi bunday hissiyotlardan mahrum bo'lganlarga qaraganda o'zlarini baxtliroq sezishadi. Hayotda yolg'iz qolgan yoki beva odamlarga qaraganda nikohda bo'lgan odamlar o'zlarini hayotdan ko'proq qoniqqan his etadilar"³.

¹ Диденко Е.Н. Психология события супругов в семьях моряков и «береговых» семьях. Автореф. дис. канд. психол. наук. – Краснодар, 2008. – С. 66-96.

² Djunaydullayev D. O'zbekiston mintaqalarida aholi migratsiyasi va uni tartibga solishni takomillashtirish. Iqtisod. fan. nomz. ... diss. avtoref. – T., 2022. – 27 b.

³ Почебут Л.Г. Взаимопонимание культур: методология и методы этнической и кросс-культурной психологии. Психология межнациональной толерантности / Л.Г.Почебут. – СПб.: Изд-во СПбГУ, 2005. – 281 с.


Tadqiqotimiz obyekti sifatida psixologik tadqiqotlarni tashkil etish mezonlaridan kelib chiqqan holda tanlanma to'plamlar o'rtasida farqli va o'xshash psixologik tafovutlar mavjud bo'lishini inobatga olgan holda, tanlanmaning representativligini ta'minlash maqsadida respublikamizning 3 ta viloyati: Farg'ona, Surxondaryo va Jizzax viloyatlarini tanlab oldik. Respondent sifatida tadqiqotimizda ishtirok etgan shaxslarning viloyatlar kesimidagi taqsimoti quyidagi jadvalda ko'rsatib o'tilgan.

1-jadval

**Respondentlarning viloyatlar kesimi bo'yicha ko'rsatkichlari
(n=310)**

Viloyat	Son (nafar)	Foiz (%)
Farg'ona viloyati	99 nafar	32%
Surxondaryo viloyati	110 nafar	35,5%
Jizzax viloyati	101 nafar	32,5%
Umumiy	310 nafar	100,0%

Tadqiqotimiz davomida mehnat migranti oilalaridagi er-xotinning emotsional munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish maqsadida 310 nafar migrant hamda migrant bo'lmagan oilalarning er-xotinlarini tanlab oldik. Jumladan, tadqiqotda ishtirok etgan respondentlardan viloyatlar kesimida: **Farg'ona viloyatidan 99 nafar (32%)**, Surxondaryo viloyatidan 110 nafar (35,5%) va Jizzax viloyatidan 101 nafar (35,5%) er-xotinlar jalb etilgan.



1-rasm. Tadqiqotda ishtirok etgan respondentlarning viloyatlar kesimi bo'yicha taqsimoti (% hisobida)

Mazkur berilgan diagrammada respondentlarning viloyatlar kesimida migrant hamda migrant bo'lmagan oilalarning ko'rsatkichlari foiz hisobida ifodalangan. Jumladan, Farg'ona viloyatidan migrant oilalar

54,5%, migrant bo'lmagan oilalar 45,5% ni, Surxondaryo viloyatidan migrant oilalar 51%, migrant bo'lmagan oilalar 49% ni, Jizzax viloyatidan migrant oilalar 51,4%, migrant bo'lmagan oilalar 48,6% ni tashkil etdi.

2-jadval

**Tadqiqotda ishtirok etgan respondentlarning jins tafovuti
bo'yicha taqsimoti**

Viloyat	Migrant oila				Migrant bo'lmagan oila			
	Erkak	Foizi	Ayol	Foizi	Erkak	Foizi	Ayol	Foizi
Farg'ona	23	30,6	31	35,6	19	29,3	26	31,3
Surxondaryo	27	36	29	33,4	25	38,4	29	35
Jizzax	25	34,3	27	31	21	32,3	28	33,7
Jami	75	100,0	87	100,0	65	100,0	83	100,0

Respondentlarni tanlash maqsadli tanlash usuli orqali amalga oshirildi va bunda ularning yoshi, mehnat faoliyati, turmush staji, migrantlik muddati oilaviy ahvoli e'tiborga olindi. Tadqiqotga umumiy hisobda 310 nafar respondentlar jalb etilib, ulardan 140 nafarini erkaklar va 170 nafarini ayollar tashkil etdi. Tadqiqotda ishtirok etgan respondentlardan Farg'ona viloyati migrant oila erkaklari 23 nafar (30,6%), ayollari 31 nafar (35,6%), Surxondaryo viloyati migrant oila erkaklari 27 nafar (36%), ayollari 29 nafar (33,4%) va Jizzax viloyati migrant oila erkaklari 25 nafar (34,3%), ayollari 27 nafar (31%) sonidan kelib chiqqan holda to'g'ri proporsional ravishda migrant bo'lmagan oilalardan Farg'ona viloyati migrant bo'lmagan oila erkaklari 19 nafar (29,3%), ayollari 26 nafar (31,3%), Surxondaryo viloyati migrant bo'lmagan oila erkaklari 25 nafar (38,4%), ayollari 29 nafar (35%), va Jizzax viloyati migrant oila erkaklari 21 nafar (32,3%), ayollari 28 nafar (33,7%) i tanlab olindi.


Tadqiqotimizning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda biz tadqiqot ishimizda migrant va migrant bo'lmagan oilalardan turli turmush stajiga ega bo'lgan er-xotinlarni tanlab oldik. O'zbek oilalari turmush qurganlik muddatiga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratib chiqildi:

I guruh – 1–5 yilgacha turmush stajiga ega bo'lgan yosh oilalar;

II guruh – 6–10 yil turmush stajiga ega bo'lgan oilalar;

III guruh – 11–15 yil turmush stajiga ega bo'lgan oilalar.

Respondentlarni ushbu guruhlariga ajratishda ijtimoiy psixologiya, oilaviy munosabatlar psixologiyasida turmush o'rtoqlar munosabatlari, oilaga bog'liq muammolarini ochib berish doirasida tadqiqotchilar tomonidan olib borgan tadqiqot ishi natijalarida ilgari surilgan g'oyalar, tamoyillarga asoslangan holda o'rganilayotgan migrant oilalarning etnik hamda ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini inobatga oldik.



3-rasm. Migrant va migrant bo'lmagan oilalarning turli muddat turmush stajiga ko'ra taqsimoti

Tadqiqotda ishtirok etgan respondentlarning mehnat migranti oilalari va migrant bo'lmagan oilalarning turli turmush muddatiga binoan 1–5 yilgacha turmush stajiga ega bo'lgan migrant oilalarda 21% ni, 5–10 yil turmush stajiga ega bo'lganlar 26,6%, 11–15 yil turmush stajiga ega bo'lganlar 52,5% ni tashkil etgan bo'lsa, migrant bo'lmagan oilalarda esa 1–5 yilgacha turmush stajiga ega bo'lgan oilalardan 30,4% ni, 5–10 yil turmush stajiga ega bo'lganlar 21,6%, 11–15 yil turmush stajiga ega bo'lganlar 48% ni tashkil etgan.

Nikoh – oila munosabatlarini, oilaning muammolarini o'rganishga, ularni yoritishga bag'ishlangan bo'lib, so'nggi yillarda chop ettirilgan ilmiy adabiyotlar va o'tkazilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarida ko'rsatilishicha, hozirgi kunda oilalarning mustahkamligini ta'minlashda tashqi omillar (ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy omillar, an'analar)dan ko'ra ichki psixologik omillar (o'zaro hurmat, mehr-oqibat, sevgi, oilaviy hayotga psixologik tayyorlik, o'z nikohi, oilaviy hayotining subyekt tomonidan ijobiy baholanishi, nikohdan qoniqqanlik darajasining yuqoriligi kabilar) tobora hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi, deb qaralmoqda.

Nikohdan qoniqqanlik darajasi er-xotinlik munosabatlarida eng muhim omillardan biri sanaladi. Nikohdan qoniqqanlik darajasi deganda, er va xotinning o'zining oilaviy turmush holatini idrok etgan holda birgalikdagi hayotidan qoniqish hosil qilishi va buning natijasida hayotidan mamnunligi nazarda tutiladi.

Biz o'z tadqiqotlarimizda Y.E.Aleshina, P.Y.Gozmanlar tomonidan taklif etilgan “Nikohdan qoniqqanliklik darajasini aniqlash” metodikasidan foydalanishni lozim topdik, chunki bu metodikadan psixologik amaliyotda psixodiagnostik emas, balki er-xotinlarga psixologik maslahat berish vositasi sifatida ham keng foydalaniladi. Metodikalar O'zbekiston psixologlari tomonidan oilaning ijtimoiy-psixologik, etnopsixologik xususiyatlarini o'rganishda foydalanilgan. Tadqiqotda mavsumiy xorij

Nikoh – oila munosabatlarini, oilaning muammolarini o'rganishga, ularni yoritishga bag'ishlangan bo'lib, so'nggi yillarda chop ettirilgan ilmiy adabiyotlar va o'tkazilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarida ko'rsatilishicha, hozirgi kunda oilalarning mustahkamligini ta'minlashda tashqi omillardan ko'ra ichki psixologik omillar tobora hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi, deb qaralmoqda.

***Y.E.Alyoshina
nikohdan
qanoqish kabi
nikoh hodisasini
hisobga olgan
holda, “uning
asosiy tezisi,
hayot davomida
er-xotinlarning
bir-birlarini idrok
qilishlari tasodifiy
emas, balki tabiiy
o‘zgarishlar ham
sodir bo‘lib turadi”
degan fikrni
ta’kidlagan.***

mamlakatlariga ketadigan mehnat migrantlari va ularning turmush o‘rtoqlari tanlab olindi.

Y.E.Alyoshina nikohdan qanoqish kabi nikoh hodisasini hisobga olgan holda, “uning asosiy tezisi, hayot davomida er-xotinlarning bir-birlarini idrok qilishlari tasodifiy emas, balki tabiiy o‘zgarishlar ham sodir bo‘lib turadi” degan fikrni ta’kidlagan. Olim nikohdan qanoqish bilan bevosita aloqador bo‘lmagan, “oila rivojlantirish sikli” konsepsiyasi ostida ilgari surgan va Alyoshina nikoh muddati hamda oilada bolalar borligi yoki yo‘qligi haqidagi tezkor tushunchalar bilan almashtirgan⁴.

Tadqiqotchilarning turmush staji va yoshni taqsimlash strategiyasining to‘g‘riligini ta’kidlashadi⁵. Masalan, N.V.Samoukina ikkita inqiroz davrlarini aniqlaydi: 5–7 va 13–18 yillik turmush staji bilan. Birinchisini u sherikning obrazini idrok qilishning o‘zgarishi bilan, ikkinchisini esa sheriklarning bir-biridan charchashi bilan bog‘laydi. O‘z navbatida, V.Satir, birinchidan, bolaning yoshi, ikkinchidan, er-xotinning fiziologik o‘zgarishlari bilan aloqador bo‘lgan oiladagi 10 ta inqirozni sanab o‘tadi⁶.

Yuqorida berilgan jadvallar asosida shuni ko‘rishimiz mumkinki, migrant bo‘lmagan oilalarning oilaviy turmush staji ortishi nikohlaridan qanoqish darajasining yuqori bo‘lishiga olib kelar ekan. Migrant oilalarda esa migratsiya tufayli oilaviy turmush muddatining oshishida turli turmush staji bosqichlarida er-xotinlarning o‘z nikohlaridan qanoqish darajasining pasayib borishiga turtki bo‘lar ekan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, migrantlarning boshqa mamlakat, millat madaniyati, tili, e‘tiqodiga moslashishi oson kechadigan jarayon emas. Aynan shu muammolar bilan birga uning boshqa davlatda qolgan oila a‘zolari bilan bo‘ladigan muammolarni birgalikda yechish lozim. Migratsiyaning bunday muammolari nafaqat shaxsning o‘ziga, balki uning jufti bilan munosabatlariga ham ta’sir etadi. Er-xotinlarning o‘z nikohidan qanoqishlari ularning o‘zaro tushunish, o‘zaro hurmat, hissiy intilish omillari bilan bevosita bog‘liqdir. Dissertatsiyamizning keyingi paragrafida sanab o‘tilgan omillarni ikkala ko‘rsatkich o‘rtasida qanday bog‘lanish namoyon bo‘lishi haqidagi tahlillarga to‘xtab o‘tamiz.

⁴ Карабанова.О.А.Психология семейных отношений и основы семейного консультирования. – М.: Гардарики, 2005; Cohen D. Cultural psychology // APA Handbook of Personality and Social Psychology, Vol. 1: Attitudes and Social Cognition / M.Mikulincer, P.R.Shaver, E.Bordiga, J.F.Bargh (Eds.). – US: American Psychological Association. – 2015. pp. 415-456.

⁵ Сатир. В. Как строит себя и свою семью? – М., 1999. – 432 с.; Зотов.В.В., Каменева.Т.Н., Орлов Е.М., Социокультурные риски семейно-брачных отношений в условиях глобализации пространства жизнедеятельности человека // Ученые записки. Электронный научный журнал Курского государственного университета. 2013.

⁶ Фромм Э. Искусство любви. – СПб., 2001. – 268 с.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Диденко Е.Н. Психология события супругов в семьях моряков и «береговых» семьях. Автореф. дис. канд. психол. наук. – Краснодар, 2008. – С. 66-96.
2. Djunaydullayev D. O'zbekiston mintaqalarida aholi migratsiyasi va uni tartibga solishni takomillashtirish. Iqtisod. fan. nomz. ... diss. avtoref. – T., 2022. – 27 b.
3. Почебут Л.Г. Взаимопонимание культур: методология и методы этнической и кросс-культурной психологии. Психология межэтнической толерантности / Л.Г.Почебут. – СПб.: Изд-во СПбГУ, 2005. – 281 с.
4. Карабанова.О.А.Психология семейных отношений и основы семейного консультирования. – М.: Гардарики, 2005.
5. Cohen D. Cultural psychology // APA Handbook of Personality and Social Psychology, Vol. 1: Attitudes and Social Cognition / M.Mikulincer, P.R.Shaver, E.Bordiga, J.F.Bargh (Eds.). – US: American Psychological Association. – 2015. pp. 415-456.
6. Сатир. В. Как строить себя и свою семью? – М., 1999. – 432 с.
7. Зотов.В.В., Каменева.Т.Н., Орлов Е.М., Социокультурные риски семейно-брачных отношений в условиях глобализации пространства жизнедеятельности человека // Ученые записки. Электронный научный журнал Курского государственного университета. 2013.
8. Фромм Э. Искусство любви. – СПб., 2001. – 268 с.